

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MUZRAPOVA SHAHNOZA SAYDULLAYEVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION MULK HISOBINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economics sciences**

**Muzrapova Shahnoza Saydullayevna**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish.....3

**Музрапова Шахноза Сайдуллаевна**

Совершенствование учета инвестиционного имущества в акционерных общества .....27

**Muzrapova Shahnoza Saydullaevna**

Improving the accounting of investment property in joint stock companies .....55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....60

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MUZRAPOVA SHAHNOZA SAYDULLAYEVNA**

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION MULK HISOBINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan B2023.1.PhD/Iqt2798 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **To'rayev Abdurahim Nortojiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Xolbekov Rasul Olimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Mamatqulov Murodjon Shukurovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (71) 239-28-72; faks: (71) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, “2010 yildan boshlab Yaponiyada moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiqlashtirish jarayoni boshlandi, bu esa kompaniyalar va investorlarga investitsion mulklarning baholanishi va hisoblash jarayonini yanada aniqlashtirishga imkon beradi. Yevropa davlatlarida esa 2005 yildan boshlab, MHXSga asoslangan moliyaviy hisobotlar tuzishga talablar joriy etila boshlangan. Bu yillarda Yevropada, xususan, Fransiya, Germaniya va Italiya kabi mamlakatlarda investitsion mulklar hisobini to‘g‘ri va shaffof tarzda amalga oshirish uchun katta imtiyozlar yaratildi. Yevropadagi kompaniyalar uchun lizing operatsiyalarining hisobga olinishi va ularning darajasini qayta baholash ahamiyat kasb etdi, bu esa investitsion mulkning aniq va ishonchli hisobga olinishiga yordam beradi”<sup>1</sup>. Bundan ko‘rinadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda investitsion mulk hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi moliyaviy ma‘lumotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshiradi, xorijiy va bo‘lg‘usi investorlarning ishonchini mustahkamlaydi hamda ularni jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish, uning me‘yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirish, buxgalteriya hisobi o‘tkazmalarida aks ettirish, hujjatlashtirish, moliyaviy hisobotning tegishli satrlarida aks ettirish bo‘yicha ilmiy ishlar alohida e‘tiborga olingan. Shu bois, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha xalqaro ilmiy loyiha va tadqiqotlar muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari mustaqillik yillaridan boshlab milliy standartlar asosida buxgalteriya hisobini yuritib kelmoqda. Ammo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4611-sonli qaroriga asosan, «tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari, aksiyadorlik jamiyatlari hamda yirik soliq to‘lovchi toifasiga kiruvchi yuridik shaxslarni moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish tartibi» joriy etilgan. Bu esa, xorijiy investor va bo‘lg‘usi kreditorlarning ishonchini oqlashga hamda ularning ushbu jamiyat haqida qarorlar qabul qilish uchun zamin yaratadi. Respublikamizda hozirgi kunda 620 dan ortiq aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritib kelmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobi milliy standartlar asosida tuzilib xalqaro standartlarga transformatsiya qilinib kelinmoqda. Bu jamiyatlardan yirik xarajatlarni keltirib chiqarmasada, ammo jamiyat buxgalteriya hisobi xizmati xodimlari tomonidan buxgalteriya hisobi xalqaro

---

<sup>1</sup> <https://www.bankrate.com/mortgages/investment-property-statistics/>

standartlar asosida yuritishni talab qiladi. Shu boisdan, aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida zamon talabiga muvofiq takomillashtirish zarurati mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2015-yil 24-apreldagi PQ-4720-son «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida», 2015-yil 28-iyuldagi 207-son «Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hyjjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish bo‘yicha xorijiy olimlar S.M.Arashukova, O.A.Borodin, I.A.Buzova, V.V.Vorushkin, B.G.Ganin, A.Yu.Marenkova, E.A.Naumenko, Ye.V.Sevastyanova, K.A.Tyutrin va boshqalarning ilmiy ishlarini alohida qayd etish mumkin<sup>2</sup>.

O‘zbekistonlik olimlardan N.B.Abdusalomova, A.Z.Avloqulov, P.D.Ducmuratov, O.N.Jo‘rayev, A.K.Ibragimov, Sh.I.Ilxamov, A.A.Karimov,

---

<sup>2</sup>Арашукова С.М. Формирование и оценка рыночной стоимости недвижимости, приносящей доход Специальность 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2013. -143 с.; Бородин О.А. Методы и инструментарий бухгалтерской оценки инвестиционной недвижимости в процессе составления финансовой отчетности. 08.00.12 - «Бухгалтерский учет, статистика»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2014.-183с.; Бузова И.А. Инвестиции в недвижимость: Методы обоснования финансовых решений. 08.00.12 - «Бухгалтерский учет, статистика»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2000. -203 с.; Воружкин В.В. Организация перихода на международные стандарты финансовой отчетности в условиях интеграции россии в мировую экономику Специальность 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2003. -143 с.; Ганин Б.Г. Учет и оценка инвестиционной собвенность 08.00.12 - «Бухгалтерский учет, статистика»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008.-135.с.; Науменко Э.А. Учет инвестиций на предприятиях торговли. Диссертация кандидат экономических наук: 08.00.09. - Киев, 2007. -225 с; Маренкова А.Ю. Учетно аналитическое обеспечение реализации инвестиционно-строительных проектов специальность 08.00.12 - «Бухгалтерский учет, статистика»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2010. -193 с; Севастьянова Е.В. Основы гармонизации российской системы бухгалтерского учета с международными стандартами финансовой отчетности Специальность 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2000. -146 с.; Тютрин К.А. методика адаптации российской системы отчетности к международным стандартам Специальность 08.00.12 - Бухгалтерский учет, статистика диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2014. -193 с.;

O.I.Ochilov, N.K.Rizayev, S.N.Tashnazarov, A.N.To‘rayev, N.Sh.Xajimuratov, B.K.Xamdamov, Sh.T.Ergasheva va boshqalarlarning ilmiy ishlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish bo‘yicha ayrim muammolar ko‘rsatib o‘tilgan<sup>3</sup>.

Bevosita investitsion mulk masalasida A.Z.Avloqulov o‘z ilmiy izlanishlarida investitsion mulk hisobi va auditini milliy standartlar asosida takomillashtirish jihatlariga alohida to‘xtalib o‘tgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, keyingi yillarda mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari yaxlit tarzda iqtisodchi olimlarimiz tomonidan maxsus, ilmiy tadqiqot ob’ekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6 “O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulkning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslarini aniqlash;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining xorij tajribasi va undan respublikamiz iqtisodiyotida foydalanish imkoniyatlarini ochib berish;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining tashkil qilinishining amaldagi holatini belgilash;

---

<sup>3</sup> Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021-. 966 b.; Avloqulov A.Z. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsion mulk hisobi va auditini takomillashtirish. I.f.n. ... diss avtoref. –T., 2007. – 42 b.; Dusruratov R.D. Moliyaviy hisobot: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlar. Monografiya. Toshkent: T.:«Ehtremum-Precc, 2012.; Жўраев О.Н. Молиявий инвестициялар ва улардан олинадиган молиявий натижаларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш.–Т.: ЎЗР БМА, номзодлик диссертацияси автореферати, 2005. – 22 б.;Ибрагимов А.К. Тижорат банклари ташқи аудитида халқаро молиявий ҳисобот стандартларини жорий этиш методологияси. Монография, Ташкент: Молия, 2011.; Илхамов Ш.И. Инвестиция фаолиятида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. –Т.: ЎЗР БМА, номзодлик диссертацияси автореферати, 2005. – 22 б.; Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. И.ф.д. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 32 б.; Очилов О.И. Хўжалик юритувчи субъектларда инвестициялар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. -Т., 2021. -59 б.; Ризаев Н.К., Эргашева Ш.Т., Ибрагимов А.К., Ибрагимова И.Р.. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма – Т.: ТДИУ, 2019 – 227; Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Дарслик – Т.: «Иқтисод-Молия», 2019 – 584 б.; Тўраев А.Н ва бошқалар. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-молия, 2019. -332 б.; Хажимуратов Н.Ш. Молиявий ҳисобот аудити методологиясини такомиллаштириш: и.ф.д. ... дис. автореферати. Тошкент., 2021. – 66 б.; Хамдамов Б.К., Обидхонов Х.Х. Учет инвестиционной недвижимости в Республике Узбекистан и ее гармонизация в МСФО. Иқтисодиётда инновациялар.2023. -22-28 с.

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish tartibi bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining xalqaro standartlar asosida yuritilishi bo'yicha namunaviy hisobot shaklini ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining tashkil qilinishi bo'yicha ilmiy takliflar tayyorlash;

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini tashkil etishdagi muammolar va iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada kuzatish, ikki yoqlama yozuv, taqqoslash, guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy matematik usullar va boshqa iqtisodiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida aksiyadorlik jamiyati hisob siyosatiga alohida 0192 - «Investitsion mulk» nomli ishchi schyotni kiritish orqali uzoq muddatli aktivlar bo'limida keltiriluvchi «Asosiy vositalar» tarkibidagi «Binolar» va «Investitsion mulk» bo'yicha ma'lumotlarni alohida ifodalash imkoni asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlari «Buxgalteriya balansi» hisobotining 010 – «Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati» va 011 – «Asosiy vositalarning eskirish qiymati» satrlariga «Investitsion mulk» va «Investitsion mulkning eskirishi» satrlari kiritish orqali investitsion mulk hisobini takomillashtirish asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatiga 0890 – “Qurilishi tugallanmagan investitsiyalar” nomli ishchi schyotini kiritish orqali investitsion mulkni qabul qilish jarayonida kapitalizatsiya usuli bilan qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish taklifi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatida aktivlarni «Boshlang'ich qiymat» va «Haqqoniy qiymat» bo'yicha baholash orqali moliyaviy hisobotda aks ettirish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobida investitsion mulkni shaffof va ishonchli hisobga olishni ta'minlash taklifi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

muallif tomonidan «Investitsion mulk» tushunchasiga takomillashgan ta'rif ishlab chiqilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan hisob siyosatiga «Investitsion mulk» nomli ishchi schyoti kiritilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari «Buxgalteriya balansi» hisobotining 010 – «Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati» va 011 – «Asosiy vositalarning eskirish qiymati» satrlariga «Investitsion mulk» va «Investitsion mulkning eskirishi» satrlari kiritilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobida investitsion mulkni shaffof va ishonchli hisobga olish maqsadida «Boshlang'ich qiymat» va «Haqqoniy qiymat» bo'yicha baholash orqali aktivlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishga erishilgan;

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotida investitsion mulkni kirim qilish bo'yicha «Investison mulk harakati to'g'risida»gi hisobot shakli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan usul va yondashuvlarning xalqaro miqyosda tan olinganligi, normativ-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va statistik ma'lumotlarning rasmiyligi, aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro standartlar asosidagi moliyaviy hisobotlari amaliyotiga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda investitsion mulk hisobini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarda aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish va asoslash, ularni moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida aksiyadorlik jamiyati hisob siyosatiga alohida 0192 - «Investitsion mulk» nomli ishchi schyotni kiritish orqali uzoq muddatli aktivlar bo'limida keltiriluvchi «Asosiy vositalar» tarkibidagi «Binolar» va «Investitsion mulk» bo'yicha ma'lumotlarni alohida ifodalash taklifi «Uzbek Leasing International A.O.» AJ va «FOTON» AJ amaliyotiga joriy etilgan («Uzbek Leasing International A.O.» AJning 2024 yil 12 noyabrdagi 2304/001-sonli, «FOTON» AJning 2024 yil 28 fevraldagi 49-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk bo'yicha buxgalteriya hisobida aniq axborotni shakllantirish imkonini bergan hamda buxgalteriya o'tkazmalarini moliyaviy hisobotlarda to'liq va ishonchli aks ettirishga erishilgan;

aksiyadorlik jamiyatlari «Buxgalteriya balansi» hisobotining 010 – «Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati» va 011 – «Asosiy vositalarning eskirish qiymati» satrlariga «Investitsion mulk» va «Investitsion mulkning eskirishi» satrlarini kiritish orqali investitsion mulk hisobini takomillashtirish taklifi «Uzbek Leasing International A.O.» AJ hamda «FOTON» AJ amaliyotiga joriy etilgan («Uzbek Leasing International A.O.» AJning 2024 yil 12 noyabrdagi 2304/001-sonli, «FOTON» AJning 2024 yil 28 fevraldagi 49-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida «Buxgalteriya balansi» hisobot shakli orqali tegishli axborotlarni shakllantirish va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishga erishilgan;

aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatiga 0890 – “Qurilishi tugallanmagan investitsiyalar” nomli ishchi schyotini kiritish orqali investitsion mulkni qabul qilish jarayonida kapitalizatsiya usuli bilan qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish taklifi

«Uzbek Leasing International A.O.» AJ va «FOTON» AJ amaliyotiga joriy etilgan («Uzbek Leasing International A.O.» AJning 2024 yil 12 noyabrdagi 2304/001-sonli, «FOTON» AJning 2024 yil 28 fevraldagi 49-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifni aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatiga 0890 – “Qurilishi tugallanmagan investitsiyalar” nomli ishchi schyotini kiritish orqali investitsion mulkni qabul qilish jarayonida kapitalizatsiya usuli bilan qo‘shimcha xarajatlarni hisobga olish imkonini bergan;

aksiyadorlik jamiyatining hisob siyosatida aktivlarni «Boshlang‘ich qiymat» va «Haqqoniy qiymat» bo‘yicha baholash orqali moliyaviy hisobotda aks ettirish asosida aksiyadorlik jamiyatlarining buxgalteriya hisobida investitsion mulkni shaffof va ishonchli hisobga olishni ta‘minlash taklifi «Uzbek Leasing International A.O.» AJ va «FOTON» AJ amaliyotiga joriy etilgan («Uzbek Leasing International A.O.» AJning 2024 yil 12 noyabrdagi 2304/001-sonli, «FOTON» AJning 2024 yil 28 fevraldagi 49-sonli ma'lumotnomalari). Ushbu taklifni aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotning moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot shaklidagi uzoq muddatli aktivlar bo‘limida hisobga olinadigan «Investitsion mulk»ni aktiv sifatida o‘z vaqtida va ishonchli bahoda kirim qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 1 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 126 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Uning maqsadi, vazifalari, ob‘ekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatining muhimligi ilmiy izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslari**» deb nomlangan bo‘lib, unda aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulkning iqtisodiy mohiyati va mazmuni, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining normativ-huquqiy asoslari, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining xorij tajribasi va undan respublikamiz iqtisodiyotida foydalanish istiqbollari keltirib o‘tilgan.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish muhim hisoblanadi. Bu esa, moliyaviy hisobotda foydalanuvchilarni to‘g‘ri va ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash imkonini beradi.

Ma’lumki, bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzish belgilangan. Shundan kelib chiqib, respublikada faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari sonini quyida keltirib o‘tamiz (1-rasm).



### 1-rasm. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari 2019-2024-yillar bo‘yicha soni<sup>4</sup>

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari soni oshib, yirik korxonalar sifatida faoliyat yuritib bormoqda, bu esa asosiy vositalar tarkibida alohida investitsion mulkni ajratib ko‘rsatishni talab qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida mulk 40-sonli «Investitsion mulk» BHXSga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkin:

- 1) Investitsion mulk;
- 2) Egasi foydalanadigan mulk.

Har ikki turdagi investitsion mulklar jamiyatning o‘z mulkida (egaligida) yoki foydalanish huquqidagi aktiv sifatida ijaraga olingan bo‘lishi mumkin. Egasi foydalanadigan mulk ishlab chiqarish, tovarlar yetkazib berish, xizmat ko‘rsatish hamda ma’muriy maqsadlarda foydalaniladigan yer, bino (yoki uning bir qismi) yoxud ularning ikkalasining kombinatsiyasi hisoblanadi. Bunda tashkilotning o‘z egaligidagi mulkni hisobga olishda 16-sonli BHXS «Asosiy vositalar», foydalanish

<sup>4</sup> <https://stat.uz/uz/> ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

huquqidagi aktiv sifatida, ijaraga olingan aktiv uchun esa 16-son MHXS «Ijara» standartidan foydalaniladi.

Hozirgi kunda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan investitsion mulk hisobini o'rganishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shundan kelib chiqib, investitsion mulkning turli olimlar tomonidan qilingan ta'rifini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz: (1-jadval).

## 1-jadval

### «Investitsion mulk» ta'rifi bo'yicha olimlarning turli fikrlari <sup>5</sup>

<b>V.G.Belolipeskiy<sup>6</sup></b>	Korxonalar aktivlari 4 ta guruhga bo'linadi: 1. Korxonaning ishlab chiqarish quvvatiga joriy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq aktivlar; 2. Birinchi guruhdagi aktivlarni turli xil risklardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan aktivlar; 3. Biznesni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan investitsion aktivlar; 4. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati bilan bevosita aloqador bo'lmagan aktivlar.
<b>Azrilyan A.N<sup>7</sup></b>	Investitsion mulk – uzoq muddatli investisiya sifatida mavjud, daromad keltiruvchi mulk
<b>Ganin B.G.<sup>8</sup></b>	Investitsion mulk - real aktivlardagi investisiya turi va investisiyaning alohida holati hisoblanadi
<b>A.Z.Avloqulov<sup>9</sup></b>	Investitsion mulk- ijaraga berishdan va kapital qiymatini oshirish maqsadida daromad olish uchun mo'ljallangan mulkdir.
<b>A.N.To'rayev<sup>10</sup></b>	Investitsion mulk deyilganda ijara to'lovlarini olish yoki kapital qiymatini oshirish, yoki ikkala maqsadni ko'zlab egalikda bo'lgan (mulkdor yoki ijaraga oluvchining foydalanish huquqi shaklidagi aktiv sifatida) ko'chmas mulk bo'lib, u tovarlarni ishlab chiqarish va yetkazib berishda, xizmatlar ko'rsatishda, ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun, shuningdek, oddiy faoliyat davomida sotish uchun mo'ljalanmagan aktiv tushuniladi
<b>B.K.Hamdamiyov<sup>11</sup></b>	Investisiya mulki – bu kompaniya yoki uning sho'ba korxonalarining odatda foydalanilmaydigan yer va binolarga qilinadigan <b>investitsiyalar</b>
<b>Investitsion mulk 40-sonli BHXSga muvofiq<sup>12</sup></b>	Investitsion mulk – bu ijaradan daromad olish maqsadida yoki kapitalning qiymati oshishi uchun yoki ikkalasi uchun (mulk egasi yoki moliyaviy ijara shartnomasi asosida ijaraga oluvchi tomonidan) egalik qilinayotgan mulkdir.

Yuqorida olimlar keltirilgan ta'riflarni har tomonlama tadqiq etgan holda quyidagi mualliflik ta'rifi shakllantirildi:

*«Investitsion mulk – bu ko'chmas mulk bo'lib, qisqa muddatli ijaraga berish maqsadida ma'muriy yoki ishlab chiqarish, savdo maqsadida foydalanish mumkin bo'lgan yer va binodir».*

Asosiy vositalar tarkibidan alohida qilib investitsion mulkni ko'rsatish, birinchi navbatda xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobotda uning farqlanishini ko'rish imkoniyatiga, ikkinchi navbatda summaning farqlanishini ko'rish imkoniyatiga erishiladi. (2-rasm)

<sup>5</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>6</sup> Белоліпецкіі Б.Г. Финансы фирмы : Курс лекцій / В. Г. Белоліпецкіі; Под ред. И. П. Мерзлякова; Моск. гос. ун-т им. М. В. Ломоносова, Экон. фак. - Москва : Изд. дом "ИНФРА-М", 1998. – 296 с.

<sup>7</sup> Азрільян А.Н. и др. Большой бухгалтерский словарь – М: Институт новой экономики, 1999 – 574 с.


<sup>8</sup> Ганин Б.Г. Учет и оценка инвестиционной собственности 08.00.12 - «Бухгалтерский учет, статистика»: диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва 2008. – 135 с.;

<sup>9</sup> Авлоқулов А.З. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида инвестицион мулк ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш. И.ф.н. ... дисс автореф. –Т., 2007. – 42 б.;

<sup>10</sup> Тўраев А.Н. ва бошқалар. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-молия, 2019. -332 б.

<sup>11</sup> Хамдамов Б.К., Обидхонов Х.Х. Учет инвестиционной недвижимости в республике Узбекистан и ее гармонизация в МСФО. Иқтисодий инновациялар 01.2023 йил. 22-28 б.

<sup>12</sup> 40-сонли БХХС “Инвестицион мулк”. <https://lex.uz/mact/6312360>



**2-rasm. Investitsion mulkni moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning uzoq muddatli aktivlar tarkibida aks ettirish<sup>13</sup>**

Investitsion mulk hisobini tartibga solish uchun xalqaro va milliy amaliyotda quyidagi standartlardan foydalaniladi (2-jadval).

**2- jadval**

**Investitsion mulkni hisobga oluvchi xalqaro standartlar<sup>14</sup>.**

BHXS №2	«Zahiralar»
BHXS№8	«Hisob siyosati, hisob baholaridagi o‘zgarishlar va xatolar»
BHXS№16	«Asosiy vositalar»
BHXS№23	«Qarzlarni bo‘yicha sarflar»
BHXS№36	«Aktivlarning qadrsizlanishi»
BHXS№40	«Investitsion mulk»
MHXS №5	«Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat»
MHXS №13	«Haqqoniy qiymatni baholash»
MHXS№16	«Ijara»

40-BHXS «Investitsion mulk»da yer uchastkalari, binolar va tugallanmagan qurilish ob‘yektlari yoki ta‘mirlanayotgan (rekonstruksiya qilinayotgan) ob‘yektlar, o‘z xususiyatlariga ko‘ra investitsion mulk sifatida tasniflanishi mumkin.

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>14</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini to‘g‘ri tashkil etish maqsadida uning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish maqsadga muvofiq (3-jadval).

### 3-jadval

#### Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasi<sup>15</sup>

Me‘yoriy hujjatning nomi	Nazorat qilish doirasi	Ishlab chiqish doirasi
«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»	Aksiyadorlik jamiyatlarining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2014 yil 6 may, O‘RQ-370-son.
«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»	Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat	O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2016 y., O‘RQ-404-son
«Soliq kodeksi»	Mol-mulk solig‘i. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq. Soliq to‘lovchilar. Soliq solish ob‘yekti. Soliq bazasi. Soliq bazasini aniqlash tartibi. Soliq imtiyozlari. Soliq stavkalari. Soliq davri va ko‘chmas mulkka solinadigan soliq bo‘yicha boshqa munosabatlarni belgilaydi.	Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son;
«Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (keyingi o‘rinlarda — MHXS) o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta‘minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdan iborat	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli qarori
40-sonli BHXS «Investitsion mulk»	Mazkur standartning maqsadi investisiya ko‘chmas mulkini hisobga olish tartibi va unga doir ma‘lumotlarni yoritib berish talablarini belgilashdan iborat.	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug‘i. 2022 yil 10 noyabr. 61-son.25-ilova
«Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida»	MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmunini shakllantirishdan iborat.	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining Nizomi. 2024 yil 8 oktyabrdagi 181 – son buyrug‘iga 1-ilova

40-BHXS «Investitsion mulk»ni hisobga olish uchun buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo‘lib, 5-BHMS «Asosiy vositalar», 6-BHMS «Ijara hisobi», 7-BHMS «Nomoddiy aktivlar» hisoblanadi. Normativ-huquqiy hujjatlar juda ko‘p o‘xshashliklarga ega, ammo muayyan farqlar ham mavjud. O‘zbekiston buxgalteriya tizimi xalqaro standartlarga o‘tmoqda, shuning uchun O‘zbekiston buxgalteriya hisobida ko‘p jihatdan muhim o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mahalliy investitsion mulkning xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida ijobiy natijasini ko‘rsatadi.

5-BHMS «Asosiy vositalar», 6-BHMS «Ijara hisobi» nomli standartlarda mulkni investitsion mulk sifatida tasniflashning maxsus mezonlari mavjud emas, shuning uchun, 40-BHXS «Investitsion mulk» nomli xalqaro standart asosida

<sup>15</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

hisobga olish maqsadga muvofiq. Investitsion mulkni qat'iy belgilangan guruhlardan biri sifatida ko'rib chiqishda aktivlar MHXS qoidalariga mos kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan BHMSning o'zbek tilida yangi takomillashgan shakli ishlab chiqilmoqda, ammo «Asosiy vositalar» nomli BHMSda investitsion mulk alohida ko'rsatilmagan. Shu sababli, yer va bino qisqa muddatli ijara maqsadida beriladigan investitsion mulk bo'lib hisoblanadi hamda uning hisobini yuritishda alohida tartibda «Yer» va «Bino» sifatida hisobga olish maqsadga muvofiq.

Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarida investitsion mulk va asosiy vositalar bir-biridan maqsadi va usullari bilan katta farq qiladi. Investitsion mulk, asosan, daromad olish maqsadida, ya'ni ijaraga berish yoki kapital oshirish uchun foydalaniladigan aktivlardan iborat bo'ladi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, ularning ishlab chiqarish yoki savdo faoliyatida bevosita ishtirok etmasligi, balki moliyaviy daromad olishga yo'naltirilganligidir. Bunga qaraganda, asosiy vositalar (binolar, uskunalar) kompaniyaning asosiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va uzoq muddat davomida ishlatilishi ko'zda tutiladi. Ular aksiyadorlik jamiyatlarining ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, muallif tomonidan asosiy vositalar va investitsion mulkning o'zaro bir-biridan farqli jihatlari 4-jadvalda keltirib o'tilgan.

#### 4-jadval

##### Investitsion mulk va asosiy vositalarning bir biridan farqlanishi<sup>16</sup>

Asosiy vositalar	Ishlab chiqarish	Xizmat ko'rsatish	Ma'muriy	Operativ ijara	Tartibga soluvchi xalqaro standartlar
Yer	+	+	+	Investitsion mulk	40-BHXS
Bino	+	+	+		40-BHXS
Mashina va uskunalar	+	+	+	+	16-BHXS
Mebel va ofis jihozlari	+	+	+	+	16-BHXS
Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	+	+	+	+	16-BHXS
Transport vositalari	+	+	+	+	16-BHXS
Ishchi va mahsuldor hayvonlar	+	+	+	+	16-BHXS
Ko'p yillik o'simliklar	+	+	+	+	16-BHXS
Boshqa asosiy vositalar	+	+	+	+	16-BHXS

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, asosiy vositalarning hammasi ham investitsion mulk bo'la olmaydi. Ya'ni bulardan yer va bino investitsion mulk sifatida qaraladi, qolgan aktivlar esa asosiy vositalar sifatida hisobga olinadi.

Quyidagilar investitsion mulkka misol bo'ladi:

- odatdagi faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun emas, balki uzoq muddatda kapitalning qiymati oshishi maqsadida tutib turiladigan yer.

<sup>16</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

kelgusi foydalanish maqsadi belgilanmagan yer.

tashkilotning o'z mulkida bo'lgan va bir yoki undan ortiq operativ ijara shartnomasi asosida ijaraga berilgan bino.

bo'sh turgan, ammo bir yoki undan ortiq operativ ijara shartnomasi asosida ijaraga berishga mo'ljallangan bino.

kelgusida investitsion mulk sifatida foydalanish uchun qurilayotgan yoki takomillashtirilayotgan ko'chmas mulk.

Investitsion mulk kelgusi iqtisodiy naflar keltirishi ehtimoli mavjud bo'lganda va uning boshlang'ich qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lganda tan olinadi.

Investitsion mulkni tan olishda hisob birligini aniqlash mulohaza yuritishni talab etadi. Bunda komponent muhimligi jihatidan alohida yoki jamlangan tarzda hisobga olinishi mumkin.

Investitsion mulk asosan, korxonaning qolgan boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan pul mablag'larini jang'arib beradi.

16-son MHXS «Ijara» ga muvofiq, yer va bino ijara maqsadlarida alohida hisobga olinishi belgilangan. Agar ijarachi ushbu ob'yektlarni investisiya ko'chmas mulki sifatida tan olsa va haqqoniy qiymat modelini tanlasa, ularni yagona hisob birligi tarzida aks ettiradi.

Investitsion mulk buxgalteriya hisobida boshlang'ich qiymat va haqqoniy qiymat bo'yicha kirim qilinadi. Boshlang'ich qiymat bo'yicha eskirish hisoblanadi, ammo haqqoniy qiymat bo'yicha eskirish hisoblanmaydi.

Investitsion mulkning boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olinishi asosiy vositalar hisobi bilan bir xil olib boriladi, ammo investitsion mulkni haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olishda farqli jihatlar mavjud hisoblanadi. Ularning farqli jihatlarini 5-jadvalda keltirib o'tamiz.

## 5-jadval

### Asosiy vositalar va investitsion mulkni haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olishda farqli jihatlar<sup>17</sup>

Asosiy vositalar	Investitsion mulk	Farqli jihatlari
Muntazam ravishda	Har bir hisobot sanasiga	Asosiy vositalar qiymati har oyda bozor qiymati o'zgarib turadi, investitsion mulk esa ijara maqsadida hisobga olinadi
Rezerv kapitaliga	Foyda va zararga	Asosiy vositalar qayta baholansa moliyaviy holat to'g'risidagi hisobning kapital bo'limidagi rezerv kapitalida, investitsion mulk esa foyda yoki zarar sifatida aks ettiriladi
Eskirish hisoblanadi	Eskirish hisoblanmaydi	Investitsion mulk o'z qiymatini kamaytirmaydi, asosiy vositalar esa eskirish qiymatiga boshlang'ich qiymati o'zgaradi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, investitsion mulk va asosiy vositalarning haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olinishi bir biridan keskin farq qiladi hamda hisobi alohida yuritiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobini tashkil qilishning amaliy holati**» deb nomlangan bo'lib, unda

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining tashkil qilinishi, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish tartibi hamda aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion mulk hisobining xalqaro standartlar asosida yuritilishi yoritib berilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlarida buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga transformatsiya qilish jarayonida jamiyatda mavjud asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ayrim hollarda tovar moddiy zahiralari MHXS talablari bo'yicha investitsion mulk sifatida tan olinishi mumkinligi tekshiriladi va zarur transformasion yozuvlar qilinadi. Ma'lumki moliyaviy hisobotni MHXS talablari bo'yicha tayyorlashning texnik masalalari bo'yicha hech qanday qoidalar yo'q. Shundan kelib chiqib, MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni muhim.

Amaliyotda BHMS asosida tayyorlangan hisobotlarni MHXSga muvofiq tuzishning ikki xil usulidan foydalaniladi: parallel hisob usuli va transformasiya qilish usuli.

Parallel hisob va transformatsiya qilish usullari MHXSga muvofiq hisobotga o'tish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Buxgalteriya hisobining milliy standartlardan MHXSga o'tish uchun jamiyatlarda parallel hisob va transformatsiya metodlarini qo'llashadi, bu esa ularga moliyaviy axborotni yangi standartlarga moslashtirishga imkon beradi. Parallel hisoblash, ma'muriy hisobotlarni ikki to'liq tizimda – BHMS va MHXSga asoslangan tarzda to'g'ri kelishtirishni ta'minlaydi, transformatsiya qilish usullari esa mavjud hisobotlarni MHXSga moslashtirish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, ya'ni solishtirma tahlilni amalga oshirish va har ikki tizim orasidagi farqlarni aniqlash 6-jadvalda keltirilgan.

## 6-jadval

### Parallel hisob va transformatsiya usullari yordamida MHXS bo'yicha hisobotga o'tkazishning farqli jihatlar<sup>18</sup>

Solishtirish sohasi	Milliy hisobotni MHXS shakliga o'tkazish usullari	
	Parallel hisob	Transformasiya qilish
Usul tarkibi	BHMS va MHXS prinsiplari va talabi asosida parallel (ikki marta) hisob yuritish	O'tgan davr hisobotlariga tuzatish kiritish
MHXS bo'yicha axborot tayyorlashning davriyligi va tezkorligi.	MHXS bilan mos joriy axborotni tezkorlik bilan va doimiy asosda taqdim qiladi	MHXSga mos tuzilgan moliyaviy hisobotlar davriy, aniq bir sanaga uni tuzishga extiyoj bo'lganda taqdim qilinadi
MHXS bo'yicha axborot tayyorlashning narxi	Sezilarli qo'shimcha moliyaviy xarajatlar	Nisbatan kam moliyaviy xarajatlar
BHMS va MHXS asosida axborot tayyorlashning ketma-ketligi	MHXSga mos moliyaviy hisobotni BHMS asosidagi hisobot bilan bir vaqtda taqdim qilinadi	MHXSga mos moliyaviy hisobotni faqatgina BHMS asosida hisobot tayyorlagandan so'ng taqdim qilish mumkin
Vaqt sarfi	Nisbatan kam	Uzoq vaqt talab qiladi
Taqdim qilinadigan axborotning aniqligi	MHXSga muvofiq yanada aniq axborotni ifodalaydi	MHXSga muvofiq kamroq aniq moliyaviy axborotni ifodalaydi

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan kelib chiqib aksiyadorlik jamiyatlari uchun transformatsiya usuli qulayroqligini e'tirof etishimiz mumkin: bugungi kunda parallel usul orqali buxgalteriya hisobini tashkil qilishni aytmaganda ham, parallel hisob yurituvchi yoki MHXS asosida hisob yurituvchi jamiyatlar uchun alohida elektron dasturlar mavjud emas.

«Uzbek Leasing International A.O.» AJ milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarda xalqaro standartlarga transformatsiya qilish orqali «Investitsion mulk»ni alohida hisobga olish jarayoni amalga oshiriladi.

Jamiyatning 2019-2023 yillar davomida buxgalteriya milliy standartlari asosida tayyorlangan hisobotlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga transformatsiya jarayoni tahlil qilindi. 2019 yilda jamiyat balansida uzoq muddatli aktivlar tarkibidagi asosiy vositalarning jami qoldiq qiymati 18 224 036 ming so'mni tashkil qilgan. Jamiyat ushbu asosiy vositalardan ma'muriy va ijara maqsadida foydalanib kelgan. Lekin ijara sifatida foydalanilgan binoni investitsion mulk sifatida aks ettirmagan. Jamiyatning MHXS asosida tayyorlangan hisob siyosatida asosiy vositalar va investitsion mulklar boshlang'ich qiymat modeli bo'yicha hisobga olinadi. Demak, ushbu aktivlar uchun eskirish uning foydali qiymatiga mutanosib hisoblanib kelingan. Ijara sifatida foydalanishga berilgan binoni alohida identifikatsiya qilishning imkoniyati bor va shuning natijasida transformatsiya jarayonida investitsion mulk alohida ajratib olinadi va "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"da asosiy vositalardan boshqa satrlarda aks ettirilgan. Asosiy vositalar tarkibidan investitsion mulkka o'tkazishda agar boshlang'ich qiymat modeli tanlangan bo'lsa, balans qiymati bo'yicha o'tkaziladi. Quyida tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmasi beramiz:

Dt Investitsion mulk 3 648 807

Kt Asosiy vositalar 3 648 807

Shu tarzda, 2020 yilda jamiyat tomonidan bino ijara maqsadida foydalanuvchilarga berilgan.

Tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmasi:

Dt Investitsion mulk 5 971 582

Kt Asosiy vositalar 5 971 582

Jamiyat 2021 yilda kelgusi foydalanish maqsadi hozir noaniq bo'lgan yer maydonini xarid qildi. BHXS 40 ga asosan "agar tashkilot yerdan egasi foydalanadigan ko'chmas mulk sifatida yoki odatdagi faoliyati doirasida qisqa muddatda sotish uchun foydalanishi belgilanmagan bo'lsa, yer kapital qiymatining oshishi maqsadida tutib turilgan deb hisoblanadi" va investitsion mulk sifatida tavsiflanadi. Jamiyatning 2021 yilga mo'ljallangan MHXS asosida tayyorlangan hisob siyosatida yer uchun haqqoniy qiymat modeli tanlangan. Yer maydoni xarid qilinganda u bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qiymati bilan 4 438 821 ming so'mni tashkil etgan. Yil yakunida ushbu yer maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 5 060 256 ming so'm etib baholandi. Yer maydoni asosiy

vosita tarkibida yuritilib kelgan. Bundan ko'rinadiki, BHXS-40 ga asosan yer maydoni investitsion mulk sifatida hisobotlarda aks ettirilishi lozim. Jamiyat o'sha sanadagi investitsion mulkning balans qiymati bilan uning haqqoniy qiymati orasidagi har qanday farqni 16-son BHXSga muvofiq qayta baholash orqali hisobga oladi.

Tuzatuvchi buxgalteriya o'tkazmalari:

Xarid qilish:

Dt Asosiy vositalar 4 438 821

Kt Asosiy vositalarni xarid qilish 4 438 821

Qayta baholash:

Dt Asosiy vositalar 621 435

Kt Qayta baholash bo'yicha tuzatishlar 621 435

Asosiy vositalar tarkibidan investitsion mulkra o'tkazishda:

Dt Investitsion mulk (MHTH) 5 060 256

Kt Asosiy vositalar 5 060 256

Ijaraga berilgan investitsion mulk:

Dt Investitsion mulk 7 590 384

Kt Asosiy vositalar 7 590 384

2022 yilda yakunida olingan yer maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 5 768 692 ming so'm bo'lib, haqqoniy qiymat bo'yicha hisobga olingan va bunda har qanday farq foyda yoki zararda aks ettiriladi.

Bunda tuzatuvchi o'tkazmalar quyidagicha:

Dt Investitsion mulk 708 436 (5 768 692-5 060 256)

Kt Investitsion daromad 708 436

Investitsion mulkni ijaraga berish:

Dt Investitsion mulk 2 667 805

Kt Asosiy vositalar 2 667 805

2023 yilda yakunida olingan yer maydonining haqqoniy qiymati baholovchilar tomonidan 6 403 248 ming so'm etib haqqoniy qiymat bo'yicha baholangan bo'lib, har qanday farq «Foyda yoki zarar hamda boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot»ning «Investitsion daromad» bo'limida aks ettiriladi

Bunda tuzatuvchi o'tkazmalar quyidagicha:

Investitsion mulkni hisobdan chiqarish:

Dt Investitsion mulk 634 559 (6 403 248-5 768 692)

Kt Investitsion daromad 634 559

Ijaraga berilgan investitsion mulk:

